

OILAVIY BOLALAR UYI SHAROITIDA TARBIYALANAYOTGAN BOLALARDА
SENZITIVLIKNING O'ZIGA XOSLIGI

Ergasheva Muhayyo Jo'rayevna

Xalqaro innovatsion universitet

"Psixologiya va jismoniy ma'daniyat kafedrasi" o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14736984>

Annotatsiya. Go'daklik davridagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamkorlikdagi emotsiyonal munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishiga uni to'g'ridan - to'g'ri emotsiyonal hisssiy yuksalishiga ta'sir ko'rsatadi. Kattalar bilan emotsiyonal munosabat 1-3 yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo'lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishlariga unga o'z diqqatlarini qaratishlariga odatlanishi, uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelishi bilan birlgilikda, dastlabki senzitiv jarayonni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: Go'daklik, o'yinchoq, jismonan, psixik, ijtimoiy, emotsiyonal munosabat, psixik taraqqiyot, senzitivlik, senzitiv davr, hissiy yolg'izlik.

Abstract. The life of a child in infancy is completely connected with the emotional relationship with adults, which directly affects the child's good mood and emotional growth. Emotional relationship with adults is the main leading activity of children aged 1-3 years and is the basis of the child's psychological development. The habit of adults to constantly be with the child and pay attention to him, along with the weakening of his interest in toys, leads to the emergence of the initial sensitive process.

Keywords: Infancy, toy, physical, psychological, social, emotional relationship, psychological development, sensitivity, sensitive period, emotional loneliness

Аннотация. Жизнь ребенка в младенчестве полностью связана с эмоциональным взаимодействием со взрослыми, а хорошее настроение ребенка напрямую влияет на его эмоциональное развитие. Эмоциональные отношения со взрослыми являются основной ведущей деятельностью детей в возрасте 1-3 лет и считаются основой психического развития ребенка. Привычка взрослых постоянно находиться рядом с ребенком и уделять ему внимание, а также ослабление его интереса к игрушкам обуславливают возникновение первичного сенсорного процесса.

Ключевые слова: Младенчество, игрушка, физическое, умственное, социальное, эмоциональное отношение, умственное развитие, чувствительность, сенситивный период, эмоциональное одиночество.

Go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi, boladan juda jadal ravishda rivojlanadigan faol, tez, ilg'aydigan, harakatchan, yordamga chaqira oladigan quvnoq bolaga aylanish davrdir.

Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushslashga va ulardan foydalanishga o'rganadi.

Ilk yoshdagagi bolaning harakat faoliyati uning rivojlanish darajasini va nerv tizimining funksional xolatini aks ettiradi. N.D.Levitovning ko'rsatishicha, yangi harakatlarni egallash analizatorlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'langan, ilk yoshdagagi bolalarning muskullari juda bo'sh bo'ladi. Shu sababli ham tana harakatini muvozanatlashtirishda kattalrni ko'magi zarur hisoblanadi.

Go'daklik davridagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamkorlikdagi emotsiyonal munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishiga uni to'g'ridan - to'g'ri emotsiyonal hisssiy yuksalishiga ta'sir ko'rsatadi. Kattalar bilan emotsiyonal munosabat 1-3 yoshdagagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo'lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishlariga unga o'z diqqatlarini qaratishlariga odatlanishi, uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelishi bilan birgalikda, dastlabki senzitiv jarayonni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bolalarga turfa axborotlarni rang – barang berilishi, ular bilan muloqotga kirishish, o'ynash bolaning atrof – olamdagagi vogeliklarni anglashga bo'lgan ehtiyojini oshiradi.

Shuningdek cheklangan tarbiyaga nisbatan bolani faol harakat va muloqot bilan ta'minlanishi boladagi bilish jarayonlarini rivojlanishini keltirib chiqaradi. Har bir bolada senzitivlik har xil yoshga, har xil vaziyatga qarab shakllanadi.

Senzitivlik natijasida bola ma'lum harakat yoki xolatni o'zi mustaqil anglay olishi kuzatiladi. Shu predmet yoki jarayon haqida bola tasavvurga ega bo'ladi.

Baholanki 1-5-3 yosh bolada nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola bilan so'zlashayotganda kattalar so'zlarni aniq talaffuz etishlari va boladan ham aniq talaffuzni talab etishlari lozim. bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llay olish mumkinligini anglash, bolada senzitivlikni eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi.

Bu jarayon orqali endi bola yangi yondoshuvlar o'ylab topa boshlaydi. Oilada tarbiyalanayotgan bola ko'proq kattalar bilan munosabatga kirishsa mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari o'yinchoqlar bilan ovunishini ko'rishimiz mumkin.

Oiladagi bolalar o'zlarida kechayotgan hissiyotlarni ko'rsatib, hissiy javob olishi mumkin,lekin afsuski mehribon tarbiyachilar shijoatiga qaramasdan,bolalar ko'pincha muommolar qarshisida bitta o'zları qolishga majbur bo'lishadi.Muommolar qarshisida ojizlik,hali mustaqil bajara olish ko'nikmasining shakllanmaganligi,bolalarda ruhiy tushkunlikni

Shuningdek bolalarda "hissiy yolg'izlik"ni keltirib chiqaradi.1-3 yoshdagি bolalar dastlabki mustaqil harakatlarni atrofidagi insonlar yordami, olqishi orqali amalga oshirgan bo'lsa, ular yana shu olqish uchun ko'proq xatti-harakatlarni o'zları mustaqil bajarishga harakat qilishadi.

Bola o'z harakatlari bilan atrofdagilarni diqqatini torta olishi mumkinligini anglagan xolda endi harakatdan to'xtamaydi. Ana shunday munosabat natijasida bolada qandaydir aktivlik, kattalarga talpinish reaksiyasi yuzaga keladi. Psixologlar bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatdan yuzaga keladigan emotsiyalarni jonlanish kompleksi deb ataganlar.

Bu kompleksda bola uning bilan munosabatda bo'layotgan odamga muloyim tikilib, jilmayadi, qo'l va oyoqlari bilan talpinib qandaydir ovoz chiqaradi. Bolalarda ovoz chiqarish orqali e'tibor tortish eng oson usul hisoblanadi. Psixologiya, psixofiziologiya, psixolingvistika fanlarida to'plangan nazariy va amaliy materiallar tahliliga ko'ra akustik nutq signallari murakkab muvofiqlashgan harakatlarning natijasida namoyon bo'luvchi majmuaviy xolatlarning birlashuvi nutq apparati deb ataladi.

Tarbiyaning to'g'ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo'ladigan muomila munosabatini predmetlar, o'yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalarning bolaga nisbatan emotsiyal munosabati ,ularning gaplariga bolaning diqqat qaratishi ,javob qaytarishga harakat qilishi ,ba'zi so'zlarni xotirasida saqlab emotsiya bildirishi,diqqat,xotira,nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo'ladi.

Agar bola 5-6 oyligidayoq oilaviy bolalar uyi yoki farzandlikka olinsa, unda atrof olamdagи narsa - predmet va insonlarga moslashib ketish osonroq kechishini ko'rishimiz mumkin.

Ana shunday munosabat natijasida bolada qandaydir aktivlik, kattalarga talpinish reaksiyasi yuzaga keladi. Psixologlar bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatdan yuzaga keladigan emotsiyalarni "jonlanish kompleksi" deb ham ataganlar.

Nutq juda erta bolaning va atrofdagilarning amaliy faoliyati bilan bog'lanib L.S.Vigotskiy aytganidek ,anchagina erta amaliy tafakkur vositasiga aylanadi.Boshqacha qilib aytganda nutqning amaliy faoliyati bilan aloqadorlik shakllaridan biri,bo'lajak harakatlarni rejalshtirish,kechayotgan harakatlarga nutqning yo'ldosh bo'lishi va harakat natijalarini nutq vositasida ta'kidlab quyishda namoyon bo'ladi.Bularning bari esa aqliy faoliyatning shakllanishi uchun juda zarur.

Maktabgacha davrning oxiri kichik va o'rta bog'cha davrlarda nutq bolaning amaliy faoliyati tarkibiga tez-tez kirib turadi. Bolalarda senzitivlik faqat nutqqa nisbatan emas, balki boladagi har bir bilish faoliyatlarini ma'lum davrlarda alohida –alohida rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Ilk bolalik yoshidagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Ixtiyorsiz diqqatning kelgusi taraqqiyoti qiziqishlarning boyib borishiga bog'liqdir.

Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqat endigina vujudga kela boshlagan bo'ladi.

Bola har qancha ko'p e'tibor va harakat bilan yashar ekan boladagi shaxsiy rivojlanish jadal kechadi. Hissiy – emotsiyonal jihatdan shakllangan ruhiyat muommolarga duch bo'lganda ruhiy zaif bolalarga nisbatan kamroq stresga tushadi.

Bolalarni kichik yoshdayoq oilaviy bolalar uyiga qabul qilinishi, ularda hissiy –emotsional bog'lanishni mustahkam bo'lishiga zamin yaratadi. Xuddi shu sababli ham bolalarni kichik yoshdayoq oilaviy bolalar uylariga qabul qilinishi hissiy-emotsional holatlarni yaxshi rivojlanishiga sabab bo'ladi.

REFERENCES

1. Vasila Karimova "Psixologiya ", Toshkent, 2000.
2. Foziev E. "Umumiy psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2004
3. "Psixologiya atlasi" M.Gomezo tahririda Moskva 1986
4. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lug`ati, Toshkent 1998
5. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
6. Foziev E. «Umumiy psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2004.
7. A.V.Petrovskiy. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 1992.
8. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovaniya v dvux tomax. M., 1992.
9. M.G.Davletshin. Zamonaviy mакtab o`qituvchisi psixologiyasi. T., 1997.
10. Foziev E. Psixologiya. T., 1994.